UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI.....	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUVISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjnovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	



IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna

University of business and science Toshkent filiali,
Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti
E-mail: mferangiz574@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston iqtisodiyotida raqobat muhitini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida tarkibiy o'zgarishlarni takomillashtirish jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda bozor munosabatlari asosida ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, monopol tuzilmalarni qisqartirish, davlatning iqtisodiyotdagi ortiqcha ishtirokini kamaytirish hamda xususiy sektor ulushini kengaytirish muhim omillar sifatida asoslab berilgan.

Maqolada tarkibiy islohotlarga doir ikki dastur tahlil qilinib, raqobat muhitidagi o'zgarishlarni baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar — korxonalar soni va miqyos tarkibi, bozor konsentratsiyasi darajasi, narx shakllanishining erkinligi, xususiy sektor ulushi kabi mezonlar hamda ularni hisoblash usullari yoritilgan. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijalari bilan bir qatorda, hal etilmagan tizimli muammolar ham tahlil qilingan.

Tadqiqot yakunida samarali raqobatni ta'minlash va bozor institutlarini mustahkamlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tarkibiy o'zgarishlar, raqobat muhiti, demonopolizatsiya, ko'p ukladli iqtisodiyot, davlat ishtiroki, xususiy sektor, bozor konsentratsiyasi, raqobat ko'rsatkichlari, bozor islohotlari, O'zbekiston.

Abstract. This article analyses the development of a competitive environment in the economy of Uzbekistan through the improvement of structural transformations. The study substantiates the importance of forming a multi-structured economy based on market relations, reducing monopolistic structures, limiting excessive state participation in the economy, and expanding the role of the private sector.

The paper examines two structural reform programmes and presents key indicators for assessing changes in the competitive environment, including the number and scale structure of enterprises, market concentration level, degree of price liberalisation, and the share of the private sector, along with their calculation methods. Recent reforms are analysed, and remaining systemic challenges are identified.

The study concludes with practical recommendations aimed at strengthening market institutions and ensuring effective competition.

Key words: structural changes, competitive environment, demonopolisation, multi-structured economy, state participation, private sector, market concentration, competition indicators, market reforms, Uzbekistan.

Аннотация. Статья посвящена анализу направлений развития конкурентной среды в экономике Узбекистана на основе совершенствования структурных преобразований. В исследовании обоснована значимость формирования многоукладной экономики на базе рыночных отношений, сокращения монопольных структур, снижения чрезмерного государственного участия в экономике и расширения доли частного сектора.



В работе рассмотрены две программы структурных реформ, а также представлены ключевые показатели оценки изменений конкурентной среды — количество предприятий и их масштабная структура, уровень рыночной концентрации, степень свободы ценообразования, доля частного сектора, а также методы их расчёта. Проанализированы результаты реформ последних лет и выявлены сохраняющиеся системные проблемы. В заключении сформулированы практические рекомендации по дальнейшему развитию рыночной среды и обеспечению эффективной конкуренции.

Ключевые слова: структурные изменения, конкурентная среда, монополизация, многоукладная экономика, государственное участие, частный сектор, рыночная концентрация, показатели конкуренции, рыночные реформы, Узбекистан.

KIRISH

Respublikamizda uzoq yillar davomida amal qilib kelgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik yuritish tizimi iqtisodiyotimizda ma'lum darajada salbiy oqibatlarni yuzaga keltirdi. Xususan, davlat mulki negizida iqtisodiy jihatdan yetarlicha asoslanmagan ishlab chiqarishning haddan tashqari konsentratsiyalashuvi, xom ashyo eksportiga ixtisoslashuv natijasida iqtisodiyotning bir yoqlama rivojlanishi, ishlab chiqarish vositalari, ularga ehtiyot qismlar va butlovchi mahsulotlarni boshqa hududlardan olib kelishga asoslangan iqtisodiy aloqalarning kuchayishi mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Bunday holat kon'yunkturaviy o'zgarishlar sharoitida iqtisodiyotning tashqi omillarga sezgirlikni oshirdi.

Milliy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish zarurati, eng avvalo, ustuvor tarmoqlarda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirish, ularning aniq maqsad va vazifalarini belgilash hamda o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda iqtisodiy barqarorlikka ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini shakllantirish, bozor infratuzilmasini takomillashtirish, ishlab chiqarish mexanizmlarini ixtisoslashtirish hamda iqtisodiy qonunlar mutanosibligini ta'minlash orqali erishish mumkinligi amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat tushunchasining iqtisodiy mohiyati va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, raqobat muhitini takomillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri bilan bog'liq ilmiy-nazariy asoslar xorijiy iqtisodchi olimlar — M. Porter, A. Christopher, E. Pierre, E. Langeard, V.Ye. Roxchin, Ye.N. Vetrova, T.G. Filosofova, V.A. Bikov, Yu.B. Rubin, F. Davrakov, M.A. Agapova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda raqobat muhiti va uni himoya qilish mexanizmlari, raqobat jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari, xorijiy tajribadan samarali foydalanish masalalari Sh.D. Ergashxodjayeva, A. O'lmasov, A. Vaxobov, Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G'ofurov, M.T. Yaxshiyeva, X.T. Azizov, D.Sh. Bababekova, U.J. Zaynutdinova, B.O. Tursunov, K.O. Xoliqov, R.H. Do'sanov, A.M. Qodirov, A.T. Axmediyeva kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borishda ilmiy bilishning induksiya va deduksiya, analiz va sintez, taqqoslash hamda iqtisodiy-statistik metodlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tarkibiy siyosatining asosiy maqsadi — bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan institut va mexanizmlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishmasdan turib, bozor tamoyillariga asoslangan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash murakkablashadi.

Bozor islohotlari va tarkibiy o'zgarishlar o'zaro bog'liq holda amalga oshirilib, bir-birini to'ldiradi. Tarkibiy o'zgarishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishi korxonalarning bozor munosabatlariga moslashuv jarayonini jadallashtiradi. Shu bilan birga, ushbu ikki jarayon o'rtasida muayyan muvozanatni ta'minlash zarurati mavjud. Davlatning tarkibiy siyosati qanchalik faol bo'lsa, bozor mexanizmlarini to'liq ishga tushirish jarayoni shunchalik ehtiyotkorlik bilan olib borilishi talab etiladi.

Tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotning samarali tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, buning uchun sezilarli miqdorda resurslar talab etiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida samarali tarkibiy tuzilmaning shakllanishida xususiy sektor muhim rol o'ynaydi. O'tish davri iqtisodiyotida esa xususiy sektorning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli ushbu jarayonlarning katta qismi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Natijada investitsiya va xo'jalik yuritish vakolatlarini bosqichma-bosqich xususiy korxona va tadbirkorlarga o'tkazish jarayoni ma'lum vaqt talab etadi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning davlat ixtiyorida jamlanishi xususiy sektor faolligining nisbatan cheklanishiga olib kelishi mumkin.

1-jadval. Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish mexanizmini ifodalovchi dasturlarning mazmuni¹

Dasturlar	Birinchi dastur	Ikkinchi dastur
Asosiy mazmuni	Korxonalar faoliyati shakllari va ularning tashkiliy tuzilmalarini monopoliyadan chiqarish	Korxona faoliyatini boshqarish shakl va usullarini monopoliyadan chiqarish
Yo'nalishi	Korxonalar xo'jalik yuritish tashkiliy shakllarining tashqi o'zgarishlariga qaratilganligi	Korxonalar faoliyatidagi ichki o'zgarishlarga qaratilganligi
Amalga oshiriluvchi chora-tadbirlar	- sanoat tarmoqlari bo'yicha korxonalar sonining ko'payish tomonga miqdoriy o'zgarishi; - ko'plab korxonalar miqyos tavsiflari (hajmlari) ning qisqarish tomonga o'zgarishi; - ish faoliyati shakli va tamoyili jihatidan umuman yangi korxonalarning paydo bo'lishi.	- firmani boshqarishning tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish; - xo'jalik yuritishning usullari, tamoyillari, motivlari va rag'batlari: rejalashtirish mexanizmi, moddiy-texnika ta'minotini tashkil etish, mahsulotni sotish va boshqalarni o'zgartirish.

Tarkibiy o'zgarishlar sharoitida xususiy kapitalning yetishmasligi davlat Davlat tomonidan ta'sir ko'rsatishning nobozor usullarini qo'llashga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin. Bunday usullarning qo'llanilishi bozor raqobatini turli yo'llar bilan cheklash, iqtisodiyotni erkinlashtirish sur'atlarining sekinlashuvi bilan bog'liq bo'lib, umuman islohotlar jarayonining jadalligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirishda ishlab chiqarishni tarkibiy isloh qilish mexanizmini ifodalovchi o'zaro bog'liq ikki dasturning mazmunini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin.

Har ikkala dastur o'rtasida o'zaro aloqa mavjud bo'lib, ulardan birida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ikkinchi dastur doirasidagi tadbirlarni ham izchil bajarishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida raqobat muhitining o'zgarishi serqirra va murakkab jarayon bo'lib, uni alohida, yagona ko'rsatkich orqali to'liq ifodalash mumkin emas. Shu bois tarmoqdagi raqobat muhitining o'zgarishini undagi korxonalar sonining o'sishi, tarmoq tarkibiy tuzilmasida korxonalarning miqyos jihatidan solishtirma salmog'i, iqtisodiy konsentratsiyalashuv darajasi, narxlarning shakllanish erkinligi hamda tarmoqdagi xususiy sektor ulushidagi o'zgarishlar orqali baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Raqobat muhitining o'zgarishi, eng avvalo, bozordagi ishtirokchilar soniga bog'liq bo'ladi. Bozorga kirish erkinligi, turli to'siqlarning kamayishi, rentabellikning me'yoriy darajada shakllanishi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qulay shart-sharoitlarning mavjudligi tarmoqdagi korxonalar sonining o'sishiga va natijada raqobatning kuchayishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, respublikamizda keyingi yillarda qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi: korxonalarni ro'yxatga olish tizimi soddalashtirildi, yagona soliq tizimi joriy etildi. Bu esa iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida korxonalar sonining sezilarli darajada oshishiga zamin yaratdi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotdagi raqobat muhitining o'zgarishini faqat tarmoqlardagi korxonalar sonining o'sishi orqali baholash yetarli asos bo'la olmaydi. Chunki korxonalar sonining ko'payishi tarmoqdagi o'zgarishlarni miqdor jihatdan tavsiflasa-da, ularning sifat jihatidan holatini to'liq aks ettirmaydi. Bozor ishtirokchilari sonining asosan yirik korxonalar hisobiga ortishi esa ayrim hollarda raqobat muhitining kutilgan darajada shakllanmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar jarayonida tarmoq tarkibiy tuzilmasida korxonalarning miqyos jihatidan taqsimlanishidagi o'zgarishlarni ham tahlil qilish zarur.

Mutaxassislar tarmoq jihatidan va miqyos jihatidan monopoliyadan chiqarishni o'zaro farqlaydilar.

"Tarmoq jihatidan monopoliyadan chiqarish — bu miqdoriy o'zgarish bo'lib, korxonalar sonini ko'paytirish yoki o'zgartirishdan iborat. Korxonalar o'rtasida ichki tarmoq raqobatini shakllantirish uchun raqobatga kirishuvchi subyektlar sonini yetarli darajada ta'minlash zarur.

Miqyos jihatidan monopoliyadan chiqarish — sanoat korxonalarning miqyos va hajmlarini maqbullashtirish, kichik va o'rta korxonalar tarmog'ini rivojlantirishni anglatadi. Ishlab chiqarish shakllarini miqdor jihatdan monopoliyadan chiqarish bilan bir qatorda, miqyos jihatidan ham muvozanatli tarkibni shakllantirish maqsadga muvofiqdir".

Raqobat muhitining o'zgarishini baholashda iqtisodiyotdagi konsentratsiya darajasini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarmoqlar o'zlarining tabiiy, iqtisodiy va texnologik xususiyatlariga ko'ra konsentratsiyalashuvga ma'lum darajada moyillik bilan ajralib turadi.

¹ Quyidagi manba asosida muallif tomonidan tuzildi: Давруков Ф. Демонполизация и создание конкурентной среды.// Экономический вестник Узбекистана, №9, 1999, с.20-23.

1-jadval. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida raqobat muhitining o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar²

Ko'rsatkichlar	Aniqlash usuli	Shartli belgilar
Tarmoqdagi korxonalar sonining o'sishi ($O'_{k.s.}$) va o'sish sur'ati ($O'S_{k.s.}$)	1) $\bar{Y}C_{k.c.} = KC_{k.c.d.} - KC_{\bar{y}.d.}$ 2) $\bar{Y}C_{k.c.} = \frac{KC_{k.c.d.}}{KC_{\bar{y}.d.}} \times 100$	$KS_{o'.d.}$ - o'tgan davrda tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar soni; $KS_{j.d.}$ - joriy davrda tarmoqdagi korxonalar soni
Tarmoq tarkibiy tuzilmasida korxonalarning miqyos jihatidan solishtirma salmog'i ($S_{sal.}$)	1) $C_{ca.l.y.} = \frac{YK}{KK} \times 100$ 2) $C_{ca.l.y.} = \frac{YK}{KK} \times 100$ 3) $C_{ca.l.k.} = \frac{KK}{KK} \times 100$ 4) $C_{ca.l.m.} = \frac{MF}{KK} \times 100$	YK – tarmoqdagi yirik korxonalar soni; $O'K$ – tarmoqdagi o'rta korxonalar soni; KK – tarmoqdagi kichik korxonalar soni; MF – tarmoqdagi mikrofirmalar soni
Iqtisodiy konsentratsiyalashuv darajasining o'zgarishi (O'_{CR})	$\bar{Y}_{CR} = CR_{k.c.d.} - CR_{\bar{y}.d.}$	$CR_{o'.d.}$ - o'tgan davrda tarmoqdagi konsentratsiya koeffitsienti; $CR_{j.d.}$ - joriy davrda tarmoqdagi konsentratsiya koeffitsienti
Narxlar shakllanishining erkinligi darajasi (ED)	$\bar{E}D = \frac{TX_{z.h.}}{JTX} \times 100$	$TX_{e.n.}$ - narxlar erkin ravishda shakllanadigan tovar va xizmat turlari soni; JTX – jami tovar va xizmat turlari soni
Tarmoqdagi xususiy sektorning salmog'i ($XS_{sal.}$)	1) $XC_{ca.l.} = \frac{HCH_{x.s.}}{HCH_{y.}} \times 100$ 2) $XC_{ca.l.} = \frac{KS_{x.m.}}{KS_{j.}} \times 100$	$ICH_{x.s.}$ - xususiy sektor korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; $ICH_{u.}$ - tarmoqdagi barcha korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; $KS_{x.m.}$ - xususiy (nodavlat) mulk shaklidagi korxonalar soni; $KS_{j.}$ - barcha mulk shakllaridagi korxonalar soni

Raqobat muhitining o'zgarishi mahsulot va xizmatlarga narx belgilash erkinligi darajasi orqali ham aniqlanadi. Ma'lumki, raqobat narxlarning erkin shakllanishini taqozo etadi. Biroq tabiiy monopoliyalarning mavjudligi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, iqtisodiy xavfsizlik chora-tadbirlari hamda milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish (proteksionizm) siyosati kabi omillar sababli barcha mahsulot va xizmatlar narxlar to'liq erkin shakllanavermaydi. Shunga qaramay, narxlarning erkin shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish raqobat muhitining muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ilgari erkin narx belgilash tartibi amal qilib kelgan ayrim tarmoqlarda, masalan, qishloq xo'jaligida, mavjud infratuzilma va bozor mexanizmlarining cheklanganligi sababli narxlar shakllanishi erkinligi ko'rsatkichi yuqori darajada namoyon bo'lmasligi mumkin. Aksincha, monopol mavqe mavjud bo'lib, narxlar davlat tomonidan tartibga solinib kelingan tarmoqlarda bosqichma-bosqich erkinlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishi natijasida ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada oshishi mumkin.

Raqobat darajasining yuksalishida ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, xususiy sektor ulushi va mavqeining ortib borishi uzoq yillar davomida shakllangan davlat monopolizmi ta'sirini kamaytirib, sog'lom raqobat muhitining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda samarali raqobat muhitini yaratish hamda tovar va xizmatlar bozorida monopol holatlarni bosqichma-bosqich qisqartirish iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda mamlakat iqtisodiyotida davlat ishtirokini maqbullashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyati sohasida 86 ta litsenziyalanadigan faoliyat turi va ruxsat berish tartib-taomillari qayta ko'rib chiqildi. Jumladan, 38 ta faoliyat turi 16 taga birlashtirildi, 25 ta faoliyat turi bo'yicha rasmiylashtirish muddatlari qisqartirildi hamda 14 ta litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarni berish jarayoni markazlashtirildi. Natijada ayrim tartiblar bekor qilinib, soliq yukini kamaytirish bo'yicha ham tegishli choralar ko'rildi.

Tadbirkorlik sohasi izchil rivojlanib borayotgani kuzatilmoqda: so'nggi uch yil davomida amaldagi tadbirkorlik subyektlari soni 25 foizga oshdi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari (alkogolsiz ichimliklar, sharbatlar, non va

2 Bababekova D.Sh. Shakllanayotgan bozor munosabatlari tizimida raqobat va uning amal qilish xususiyatlari. Monografiya, T. 2012. 85-bet



non mahsulotlari, go'sht va sut mahsulotlari, qandolatchilik mahsulotlari va boshqalar), shuningdek, ayrim nooziq-ovqat tovarlari (mebel, gilam va gilam mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari va boshqalar) bozorlarida raqobatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Qurilish materiallari, kabel va sim mahsulotlari, pul o'tkazmalari xizmatlari bozorida yirik kompaniyalar ustunligining qisqarishi kuzatildi.

Yaratilgan birja mexanizmi bozor ishtirokchilarini yuqori likvidli va monopol turdagi xom ashyo hamda materiallar bilan teng sharoitlarda ta'minlash imkonini bermoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tovar aylanmasining 65 foizini monopol mahsulotlar tashkil etadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida so'nggi yillarda monopol korxonalar soni ikki baravardan ortiq qisqardi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotida raqobat muhitiga ta'sir ko'rsatayotgan ayrim tizimli masalalar hanuzgacha dolzarb bo'lib qolmoqda:

- iqtisodiyotda davlat ishtirokining yuqori darajada saqlanib qolishi;
- narxlarning keng ko'lamda tartibga solinishi;
- imtiyoz va preferensiyalar tizimining yetarli darajada samarador emasligi;

biznes subyektlari uchun tartibga solish yukining nisbatan yuqoriligi hamda ayrim tarmoq tartibga soluvchi organlarning raqobatni rivojlantirishga yetarli darajada rag'batlantirilmaganligi;

- tabiiy monopoliyalar mavqeidan foydalanish holatlari;
- raqobatga qarshi xatti-harakatlarga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy mexanizmlarning yanada takomillashtirilishi zarurligi.

Hozirgi vaqtda tovar va moliya bozorlarida davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar salmoqli mavqega ega bo'lib qolmoqda. Masalan, monopol tashkilotlarning 80 foizi davlat ulushiga ega yoki davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan nazorat qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlatga tegishliligi va davlat tomonidan nazorat qilinishi masalalarining qonunchilikda yetarli darajada aniq belgilab berilmaganligi sababli davlatning iqtisodiyotdagi real ishtiroki darajasini baholashda ayrim qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z nazorati ostidagi tuzilmalarni, jumladan davlat unitar korxonalari (DUK) va sho'ba korxonalarni tashkil etish orqali faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda bunday korxonalar soni 4 300 tadan ortiqni tashkil etadi, jumladan: aksiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklida — 1 300 tadan ortiq, davlat unitar korxonalari shaklida — 1 800 tadan ortiq hamda ularning affilangan shaxslari — 1 100 tadan ortiq.

Bozor muhitining yetarli darajada shakllanmaganligi va davlat ishtirokining yuqori darajada saqlanib qolishi ayrim davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday holatlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida "o'zaro kesishuvchi" subsidiyalash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalar hamda imtiyozli kreditlar ko'rinishidagi davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов/пер. с англ.— М. : «Алпина Паблишер», 2011. 454 с.
2. Christopher A. Hartwell (2016) Improving competitiveness in the member states of the Eurasian Economic Union: a blueprint for the next decade, Post-Communist Economies, 28:1, 49-71 To link to this article: <http://dx.doi.org/10.1080/14631377.2015.1124554>, Eigler Pierre, Langeard Eric. Services as Systems: Marketing Implications // Marketing Consumer Services: New Insights. - Cambridge, MA: Marketing Science Institute. -2004. - p. 83-103.
3. Ergashxodjayeva Sh.D. Xalqaro raqobat. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2013y. 252 b.
4. O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.Sharq. 2006 y. 420 b., Shodmonov Sh.Sh, G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – 728 b.
5. Yaxshiyeva M. T. Hozirgi zaman raqobat nazariyasi: O'quv qo'llanma //T.: TDIU. – 2019. – T. 280.,
6. Azizov X.T. Raqobat huquqi. Darslik.–T.:TDYuU, 2016. 236 b.
7. Давруков Ф. Демонполизация и создание конкурентной среды.//Экономический вестник Узбекистана, №9, 1999, с.20-23.
8. Bababekova D.Sh. Shakllanayotgan bozor munosabatlari tizimida raqobat va uning amal qilish xususiyatlari. Monografiya, T. 2012. 85-bet



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>